

AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZLARIDA JADIDLAR MEROSINI KENG TARG'IB QILISH HAMDA BEHBUDIY ASARLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA MA'NAVIY QARASHLARI.

Umidaxon Tashmuxamedova

*Toshkent shahar Yashnobod tuman axborot-kutubxona markazi
Abonementlar va foysalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati rahbari*

*Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga
sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati,
iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.*

SHavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi, ma'rifatparvar publistit, dramaturg Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati, asarlarining tarbiyaviy ahamiyati hamda bugungi kunda uning xotirasini abadiylashtirish masadida Yurtimizda, qolaversa, axborot-kutubxona markazlarida yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy merosni o'rganishga qiziqtirish uchun olib borilayotgan targ'ibot ishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidlar, ma'naviyat, milliy me'ros, Axborot-kutubxona, ma'rifatparvar.

Annotation: this article talks about the brilliant manifestation of the Turkestan jadidism movement, the activities of the enlightened publicist, playwright Mahmudkhoja Behbudi, the educational significance of his works and the propaganda work carried out in our country, as well as in information and library centers today at the Masad of perpetuating his memory.

Key words: Mahmudhaja Behbudiy, jadids, spirituality, national me'ros, Information-Library, enlightenment.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadid bobolarimizning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etishi, bu bebaho boylikni faol targ'ib etish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bugungi tinch va erkin hayot qadrini anglab yetishda muhim o'rin egallashi bir necha bor ta'kidlangan. Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining fidoyi farzandlaridan bir qanchasi quvg'in qilindi, ularning ijodi uchun to'siqlar maydonga keltirildi va hatto ularning joniga qasd etildi. Ammo o'zbek xalqining Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'ozi Yunus, Botu kabi ko'pgina farzandlari daxshatli davr sharoitida o'z xalqi madaniyati uchun qo'lidan kelgan muhim ishlarni amalga oshirishga, kelgusi avlod uchun juda

muhim ma'naviy meros qoldirishga ulgurdilar. Bu-ularning o'z xalqiga bo'lgan sadoqatining yana bir dalilidir. Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Elbek, G'ozi Yunuslar hamisha xalqimiz ma'naviy merosiga hurmat-la qarash bilan cheklanmay boshqalarnikiga ham izzat-ikrom ko'rsatib kelganlar. Nomlari sanab o'tilganlarning deyarlik hammasiga yetakchilik qilgan Behbudiy hamfikir zamondoshlariga hamisha g'oyaviy rahbarlik qilgan deyish mumkin, zotan bu fikrni Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Ayniy, fayzulla Xo'jayrov singari siymolar muttasil ta'kidlab kelganlar. Uning biografiyasida 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga kelganligi yozilgan, ammo, oxirgi olib borilgan tadqiqotlarda Behbudiy 1874-yil 30-yanvar kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgani aniqlanib, yetarlicha dalil va isbotlar keltirildi. Oiladagi muhit undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishning tezroq ro'yobga chiqishiga imkon tug'dirdi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga ta'sir o'tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so'zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan "Hidoya" ("Islom huquqiga sharhlar") asarining o'z taqdirida katta rol o'ynaganini alohida qayd etgan. 1912-1913 yillarda Behbudiy Samarqandda "Samarqand" gazetasi, "Oyna" jurnaliga asos soladi. Shuningdek, o'zbek va fors tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Uning 1901-yildan boshlab "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiy", "Xurriyat", "Turon", "Sadoi Turkiston", "Najot", "Mehnatkashlar tovushi", "Tirik so'z", "Vaqt", "Samarqand", "Oyna" kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan.

Mahmudxo'ja Behbudiy bola tarbiyasi (uning o'qishi, ta'lim olishi) to'g'risida alohida bosh qotirgan, xatto, "Padarkush" nomli maxsus sahna asarini yozgan. Asar 1911-yilda yozilgan bo'lib, dastlab 1912-yilda "Turon" gazetasida bosilgan. Shundan so'ng tez fursatda Samarqand, Buxoro va Toshkent teatri sahnalarida ijro etilgan. Drama kompozitsion qurilishiga ko'ra oddiy bo'lgan holda mazmun-g'oya jihatdan ancha qamrovlidir. Behbudiy pedagogik qarashlarida maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasini uzviy birlikda olib borilishi lozim, aks holda fojialar ro'y beradi, degan g'oyani oldinga suradi. Dramadagi qahramonlar ikki qutbda ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o'g'li va uning gumashtalari bo'lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlar asar g'oyasini ochishda muhim o'rin egallaydi.

Ulug' mutafakkirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e'tiborsiz qolmadi, albatta. Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. 1977-yili allomaning "Saylanma" asarlari chop etildi. Asarlari darslik va qo'llanmalarga kiritilib, Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko'cha va mahallalar uning nomiga qo'yildi. Buyuk ma'rifatparvar sharafiga 2006-yil Samarqand shahrida yodgorlik o'rnatilgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo'jand shahridagi gimnaziya Behbudiy nomi bilan

ataladi. 2020-yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudiy hayotiga bag'ishlangan film premyerasi bo'lib o'tdi. Xususan, keyingi yillarda Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida uning haykali o'rnatildi, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilindi, iste'dodli dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi mukofot ta'sis qilindi. 2024 yil 27 dekabrda "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-462-sonli qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahar Yashnobod tuman axborot-kutubxona markazida Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilib, bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, siyosiy qatag'on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarining ibratli hayotiini aholi, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ'ib etish maqsadida "Jadidlar izidan", "Jadidlar xotirasi abadiy", heshtegi ostida "Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari-millat shamchirog'i", "Behbudiy-ona yurt fidoyisi", "Ma'rifatparvar jadidlar", "O'zbek jadidchilik harakati namoyondalari" nomli ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot-tushuntirish tadbirlari, davra suhbatlari va uch avlod uchrashuvlari o'tkazib kelinmoqda. Mahalla va maktablarda "Inson, Hurriyat va Vatan" nomli ko'chma kutubxonalar tashkil etilib, alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma'rifiy meros o'z xalqining istiqloliga xizmat etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy – xalq ma'rifati va taraqqiyoti yo'lida fidoyilik bilan harakat qilgan mutafakkir. Uning ta'lim sohasidagi islohotlari, matbuotdagi faoliyati va ijtimoiy-siyosiy g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning milliy uyg'onish haqidagi fikrlari bugungi jamiyatda ham dolzarb bo'lib, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. U qoldirgan meros O'zbekistonning ilmiy, madaniy va ma'rifiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda va kelajak avlodlar uchun ibrat manbai bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2024- yil 26- dekabrda 114-xdfu-sonli buyrug'i
2. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat. Toshkent: "Akademiya" 2000 y.
3. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. Toshkent: "Ma'naviyat" 2009 y.
4. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022 y.